



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **TASAVVUFDAGI “FANO FILLOH VA BAQO BILLOH TUSHUNCHALARINING FALSAFIY- ONTOLOGIK TAHLILI**

**Samadov Jonmurod**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada tasavvuf falsafasining markaziy tushunchalaridan biri bo‘lgan fano filloh va baqo billoh kategoriyalari gnoseologik va ontologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Jaloliddin Rumiy, Ibn Arabiy va Naqshbandiya tariqatining ushbu tushunchalarga bergan talqinlari asosida olib boriladi. Maqola tasavvuf falsafasining inson va Haq o‘rtasidagi birlik masalasining chuqur gnoseologik hamda ontologik talqinini ilmiy asosda yoritadi.

**Kalit so‘zlar:** fano filloh, baqo billoh, Rumiy, Ibn Arabiy, Naqshbandiya, gnoseologiya, ontologiya, tasavvuf falsafasi, vahdat ul-vujud, ilohiy birlik.

## **ФИЛОСОФСКО-ОНТОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЙ «ФАНА ФИЛЛАХ» И «БАКА БИЛЛАХ» В СУФИЗМЕ**

**Самадов Жонмурод**

Деновский институт предпринимательства и педагогики, преподаватель

### **Аннотация**

В данной статье анализируются категории «фана филлах» и «бака биллах», являющиеся одними из центральных понятий суфийской философии, на основе gnoseологического и онтологического подходов. Исследование проводится с опорой на интерпретации данных понятий в трудах Джалолиддина Руми, Ибн Араби, а также в традиции тариката Накшбандия. В статье научно обоснованно раскрывается глубокая gnoseологическая и онтологическая интерпретация проблемы единства человека и Истины в суфийской философии.

**Ключевые слова:** фана филлах, бака биллах, Руми, Ибн Араби, Накшбандия, gnoseология, онтология, суфийская философия, вахдат аль-вуджуд, божественное единство.

## **A PHILOSOPHICAL AND ONTOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF “FANA FILLAH” AND “BAQA BILLAH” IN SUFISM**

**Samadov Jonmurod**

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Lecturer

### **Abstract**

This article analyzes the categories of fana fillah and baqa billah, which are among the central concepts of Sufi philosophy, through epistemological and ontological approaches. The research is conducted based on the interpretations of these concepts in the works of Jalaluddin Rumi, Ibn Arabi, and the Naqshbandi order. The article scientifically elucidates the profound epistemological and ontological interpretation of the unity between the human being and the Divine Truth (al-Haqq) in Sufi philosophy.

**Keywords:** fana fillah, baqa billah, Rumi, Ibn Arabi, Naqshbandi order, epistemology, ontology, Sufi philosophy, wahdat al-wujud, divine unity.

Tasavvuf falsafasi insonning ruhiy kamoloti, ilohiy haqiqatga yetishish yo‘li va mavjudotning asl mohiyatini anglashga doir eng yuksak falsafiy-mistik maktablardan biridir. Tasavvufda insonning ruhiy sayri “sayr ilalloh”, “sayr filloh”, “sayr billoh” kabi marotiblar orqali izohlanadi. Bu jarayonning markazida ikki yuksak tushuncha turadi: **fano filloh** — Allohda yo‘q bo‘lish va **baqo billoh** — Alloh bilan boqiy bo‘lish. Ushbu kategoriyalar nafaqat diniy-amaliy, balki chuqur falsafiy-ontologik va gnoseologik mazmunga ega bo‘lib, tasavvuf tafakkurining eng muhim metafizik poydevorini tashkil etadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Tasavvufning yuksak cho‘qqilarini barpo etgan mutasavviflar — Jaloliddin Rumiy, Muhyiddin Ibn Arabiy, Bahouddin Naqshband boshchiligidagi Naqshbandiya tariqati — fano va baqoning mohiyatiga o‘ziga xos va chuqur talqinlar bergan. Rumiy uchun fano muhabbatning oliy darajasi sifatida ko‘rilsa, Ibn Arabiy uchun u mavjudotning asl ontologik birligiga qaytish jarayonidir. Bahouddin Naqshbandiy esa bu jarayonni amaliy jihatdan tartibga soluvchi metodlar majmuasini shakllantirgan.

“Fano filloh” va “baqo billoh” iboralari soʻfiylik, yaʼni tasavvuf yoʻlida ruhiy yuksalishning eng oliy bosqichlarini ifodalaydi. Ular insonning Alloh bilan boʻlgan ontologik va ruhiy birlashuv holatini bildiradi.

**Fano filloh** (الله في فناء) — “Allohda yoʻq boʻlish”, yaʼni insonning oʻz “men”ligini, nafsini, istak va gʻururini Alloh huzurida yoʻq qilishi, oʻz mavjudligini faqat Allohning mavjudligi bilan bogʻlab koʻrishidir. Bu bosqichda soʻfiy oʻzini yoʻq deb biladi, faqat Allohni bor deb tan oladi, oʻz “ego”si, yaʼni nafsni ammora butunlay eriydi. “Fano” soʻzi arab tilida “yoʻq boʻlish”, “mavjudlikdan ketish”, “foniylik”, “oʻtkinchilik” maʼnolarini anglatadi. Tasavvufda bu tushuncha ruhning nafsiy chegaralardan ozod boʻlishi, “menlik”ning barham topishi, insonning oʻzini alohida mavjudot sifatida idrok qilishdan voz kechishi degan maʼnolarga ega.

“Fano” lugʻatda “yoʻq boʻlish”, “halok boʻlish”, “barham topish” maʼnolarini bildiradi. Qurʼoniy maʼnoda esa bu soʻz inson va barcha mavjudotning oʻtkinchiligini anglatadi:

“Hamma narsa halok boʻlur, faqat Uning zoti mustasno” (Qurʼoni karim, Qasas surasi, 88-oyat).

Bu oyat tasavvufda shunday talqin qilinadi: haqiqiy mavjudlik faqat Allohga xos, qolgan barcha narsa xayol, soyadir. Shu bois “fano” insonning xayoliy borligʻidan voz kechib, haqiqiy mavjudlikni idrok etishidir.

### **Tahlil va natijalar**

Soʻfiylikda “fano” ikki darajada tushuniladi:

1. **Axloqiy fano** — bu nafsni tarbiya qilish, gʻurur va shahvatni yoʻqotish bosqichi;
2. **Ontologik fano** — bu “men”ning oʻz mavjudligini Allohning mavjudligi oldida yoʻq deb bilish darajasi.

Imom Gʻazzoliy “Ihyo ulum ad-din” asarida shunday deydi: “Fano — bu inson oʻzini koʻrmay, faqat Haqni koʻrgan holatdir. U oʻz irodasidan voz kechadi, faqat Alloh irodasi qoladi” [2].

Fano filloh — “Allohda yoʻq boʻlish” jarayonidir. “Fano filloh” soʻfiy nazdida oddiy “yoʻq boʻlish” emas, balki haqiqiy mavjudlikni topish uchun oʻzini yoʻqotishdir.

Tasavvuf falsafasining eng markaziy nazariyasi Ibn Arabiy taʼlimotidagi “vahdat al-vujud” — borliqning yagonaligi gʻoyasidir. Uning nazarida: “Mavjudot koʻp koʻrinsa-da, aslida yagona Haqiqat — Allohning oʻzidir. Barcha narsa Uning tajallisi, yaʼni zohir boʻlishidir” [3].

Shunday ekan, insonning “fano” holatiga kirishi uning zohiriy borligʻining yoʻq boʻlishi, yaʼni tajalliy manbaga qaytishidir. Ibn Arabiy uchun “fano” koʻplikdan yagonalikka qaytish, “baqo” esa shu yagonalikda barqaror yashashdir.

Falsafiy jihatdan bu holat ontologik negatsiya, yaʼni insonning oʻz zohiriy “men”ini rad etishi orqali haqiqiy mavjudlikni tasdiqlash jarayonidir. Tasavvufiy tafakkurda “men”ning yoʻq qilishi oddiy inkor yoki mavjudlikdan voz kechish emas, balki mavjudlikning yanada yuksak, botiniy va ilohiy darajasiga koʻtarilishidir. Inson oʻz nafsiga, shaxsiy manfaatlariga, dunyoviy istak va daʼvolariga bogʻlanib qolgan holatda haqiqiy borliq mohiyatini anglay olmaydi. Shu sababli “fano” tushunchasi tasavvufda insonning oʻzligini mutlaq yoʻqotishi emas, balki cheklangan, xudbin va zohiriy oʻzlikdan voz kechib, Haq borligʻi bilan uygʻunlashuvi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda inson oʻzini mustaqil va alohida mavjudlik sifatida emas, balki ilohiy haqiqatning bir tajallisi sifatida idrok eta boshlaydi.

Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”da “fano”ni ishqning eng oliy darajasi sifatida sharhlaydi. Uning tasavvufiy qarashlarida ishq insonni oddiy hissiy holatdan yuksak maʼnaviy-maʼrifiy maqomga olib chiqadigan kuch sifatida namoyon boʻladi. Rumiy uchun ishq — bu nafaqat sevgi, balki inson qalbini poklovchi, uni nafs zulmatidan xalos etuvchi va Haq sari yetaklovchi ruhiy quvvatdir. Inson ishq orqali avvalo oʻzining cheklanganligini anglaydi, soʻng oʻz “men”idan kechadi va ilohiy borliq oldida fanolik maqomiga yetadi. Shu maʼnoda Rumiy “Yoʻq boʻl, toki yoʻq boʻlmagan seni mavjud qilsin” degan hikmatli mazmun orqali insonni oʻz nafsiy mavjudligini tark etishga daʼvat qiladi. Bu yerda “yoʻq boʻl” iborasi insonning oʻz “men”ini, yaʼni kibr, manmanlik, nafs va xudbinlikni yoʻq qilishi zarurligini bildiradi. “Yoʻq boʻlmagan” esa abadiy, azaliy va oʻzgarmas Haq — Allohdir.

Rumiyning fikricha, inson oʻzini markaz deb bilgan paytda u haqiqiy mavjudlikdan uzoqlashadi. Chunki bunday holatda insonning borligʻi nafs, istak va dunyoviy mayllar bilan chegaralanadi. Ishaq esa ana shu chegaralarni yemiradi, insonni oʻzidan xoli qiladi va uni Haqning nuriga yaqinlashtiradi. Shuning uchun Rumiyda “fano” ishq orqali oʻzlikdan kechish, “baqo” esa ishq orqali abadiy maʼnaviy hayotga erishish sifatida talqin etiladi. Boshqacha aytganda, inson oʻzining foniy “men”ini yoʻq qilgandagina unda

boqiy haqiqat namoyon bo'ladi. Bu jarayon tasavvuf falsafasida inson kamolotining eng muhim bosqichi sifatida qaraladi.

Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarida "fano" tushunchasini qushlarning Haqqa sayri, ya'ni Simurg' sari ruhiy-ma'rifiy safar orqali badiiy ifodalaydi. Asarda qushlar Simurg'ni izlab uzoq va mashaqqatli yo'lga chiqadilar. Bu yo'l tashqi makon bo'ylab harakat emas, balki ichki ruhiy poklanish, ma'naviy sinov va o'zlikdan voz kechish yo'lidir. Qushlarning yo'lda birin-ketin yo'qolishi, charchashi, sinovlardan o'tishi "fano" jarayonining ramziy ifodasidir. Har bir qush inson tabiatidagi muayyan zaiflik, istak yoki ruhiy holatni ifodalaydi. Ularning Simurg'ga yetish yo'lida o'z shaxsiy da'volaridan kechishi insonning Haqqa yetishish uchun nafsiy to'siqlarni yengishi zarurligini anglatadi. Asar yakunida qushlar Simurg'ni topganlarida, aslida izlagan podshoh o'zlarining poklangan botiniy mohiyatida namoyon bo'lganini anglaydilar. Ya'ni ular Simurg'ni tashqi mavjudot sifatida izlagan bo'lsalar-da, oxir-oqibat Haqni o'zlarining fanolik orqali poklangan ruhiy borlig'ida kashf etadilar. "Biz yo'q edik, U bor edi, endi yo'qligimizda Uning borligi zohir bo'ldi" mazmunidagi talqin aynan tasavvufdagi "fano" va "baqo" munosabatini ochib beradi [5]. Bu holatda "fano" — insonning zohiriy, nafsiy va cheklangan mavjudligidan voz kechishi, "baqo" esa Haq borlig'ida ma'naviy barqarorlik topishidir.

Bu, G'azzoliy ta'biri bilan aytganda, "ma'rifat al-huzuriyya", ya'ni Allohni bevosita huzuriy idrok etish darajasidir [6]. "Baqo" — "qolish", "abadiylik", "barqarorlik" demakdir. Tasavvufda u "haqiqatda davom topish", "Allohning sifatleri bilan sifatlanish", "ilohiy haqiqatda yashash" ma'nolarini anglatadi. Fariduddin Attor "Tazkirat ul-avliyo"da yozadi: "Baqo — Haqning abadiy nuri bilan tiriklik topishdir" [3]. Tasavvufda fano va baqo ajralmas jarayon sifatida talqin qilinadi.

Tasavvufning eng murakkab metafizik tizimini yaratgan mutafakkir Muhyiddin Ibn Arabiy (1165–1240) hisoblanadi. Uning "vahdat ul-vujud" ta'limoti fano va baqoni mavjudotning asl ontologik mazmuniga bog'laydi. Ibn Arabiyga ko'ra, mavjudotning yagona haqiqati Allohdir. Barcha mavjudlik Uning tajalliylaridir. Inson o'z "men"ini ko'rgan sari alohida mavjudot sifatida o'zini ko'radi, fano esa ushbu alohidalik pardasining ko'tarilishidir [5]. Ibn Arabiyga ko'ra, fano bosqichidan keyin inson o'zidan yo'q bo'lmaydi, balki Allohning sifatleri bilan yashaydi. Bu "komil inson" darajasi deb yuritiladi. Buyuk fors mutafakkiri Jaloliddin Rumiy (1207–1273) tasavvufni muhabbat falsafasi orqali talqin qilgan. Uning "Masnaviy"si insonning ruhiy sayrini she'riy-ontologik timsollar orqali yoritadi. Rumiyning mashhur jumlasini: "Ishqda yo'q bo'l, shunda Haq seni bor qiladi" [8]. Uning fikricha, insonning "men"i Haqning jamoliga duch kelganda eriydi. Bu jarayon o'tkinchi emas, balki ruhiy yuksalish bosqichidir.

**Xulosa.** Tasavvufdagi fano filloh va baqo billoh tushunchalari inson ruhiyatining eng yuksak darajalarini aks ettiradi. Fano "menlik"ning so'nishi, nafsning halok bo'lishi, bilish pardasining ko'tarilishi bo'lsa, baqo ilohiy haqiqatda yashash, ilohiy sifatlar bilan tirik bo'lishdir. Ibn Arabiy, Rumiy va Naqshbandiya tariqati namoyandalari bu jarayonga turlicha, ammo bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar taklif qiladi. Fano-baqo dialektikasi tasavvuf falsafasining eng murakkab gnoseologik va ontologik tizimini tashkil etadi hamda insonning Haq bilan birlashuv jarayonini mukammal falsafiy asosda tushuntiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qushayriy Abdulkarim. Ar-Risala al-Qushayriyya fi 'ilm at-tasavvuf. — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1998.
2. Junayd Bag'dodiy. Rasoil al-Junayd. — Qohira: Dar al-Ma'arif, 2002.
3. Attor Fariduddin. Tazkirat al-awliyo. — Qohira: Dar al-Fikr al-'Arabi, 2005.
4. G'azzoliy Abu Homid. Ihyo ulum ad-din. — Bayrut: Dar al-Ma'rifa, 1997.
5. Ibn Arabiy Muhyiddin. Al-Futuhat al-Makkiyya. — Bayrut: Dar Sadir, 2010.
6. Ibn Arabiy Muhyiddin. Fusus al-hikam. — Bayrut: Dar al-Kitab al-'Arabi, 2008.
7. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviy-yi ma'naviy. — Tehron: Amir Kabir, 2006.
8. Rumiy Jaloliddin. Fihi ma fihi. — Tehron: Nashr-e Ney, 2007.
9. Chittick W. The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-'Arabi's Metaphysics of Imagination. — Albany: SUNY Press, 1989.
10. Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam. — Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.
11. Trimmingham J.S. The Sufi Orders in Islam. — Oxford: Oxford University Press, 1998.
12. Nicholson R.A. Rumi: Poet and Mystic. — London: George Allen & Unwin, 1950.